Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida chakana savdo korxonalari muhim o‘rin tutadi. Aholining iste’mol talabini qondirish, tovar aylanish hajmini oshirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash chakana savdo tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida chakana savdo nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda chakana savdo korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron tijoratning kengayishi va iste’molchilarning talab va didining o‘zgarishi chakana savdo tarmog‘iga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda

O‘zbekiston 2030 strategiyasining chakana savdoga ta’siri, ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va yangi savdo tarmoqlarining o‘sishi orqali sezilarli bo‘lishi kutilmoqda. Bu, nafaqat chakana savdoning rivojlanishiga, balki mamlakatning iqtisodiyoti va aholisining farovonligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dunyo birinchi marta chakana savdoning paydo bo‘lishini 1850-yillardan oldin Yankee Peddlers, Bartering, Trading Posts va General do‘konlari mavjud bo‘lganda ko‘rdi. Birinchi bo‘lim do‘koni 1851 yilda F & R Lazarus kompaniyasi nomi bilan AQShda tashkil etilgan bo‘lib, 1860 va 1910 yillar orasida tarmoq do‘konlari va dastlabki umumiy do‘konlar sahnada hukmronlik qilgan. 1932 yilda Nyu-Jersida (Big Bear) birinchi super bozor tashkil etilgan.

Chakana savdo — bu tovarlar yoki xizmatlarning ishlab chiqaruvchilardan yoki ulgurji savdo tarmoqlaridan bevosita oxirgi iste'molchiga sotilishi jarayonidir. Chakana savdo odatda kichik miqdorlarda amalga oshiriladi, ya'ni tovarlar bir dona, paket yoki kichik partiyalar shaklida sotiladi.

Chakana savdoning mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Iste'molchiga bevosita sotish: Chakana savdo mahsulotlarni oxirgi foydalanuvchilarga (iste'molchilarga) sotishni nazarda tutadi. Bu savdo jarayonida oraliq vositalar minimal bo‘lishi mumkin, ya'ni tovarlar ishlab chiqaruvchidan yoki ulgurji savdo tarmog‘idan bevosita iste'molchiga etkazib beriladi.

2. Tovarlar va xizmatlarning taqdim etilishi: Chakana savdoda sotiladigan tovarlar turlicha bo‘lishi mumkin – oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, elektronika, uy jihozlari, kosmetika, texnika va boshqalar. Shuningdek, bu soha xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi, masalan, ta'mirlash yoki konsultatsion xizmatlar.

3. Kichik hajmda sotish: Chakana savdo ulgurji savdoga qaraganda, mahsulotlarni kichik miqdorda, odatda bir dona yoki bir nechta paketda sotadi. Bu, iste'molchining ehtiyojiga mos ravishda, biror mahsulotni yoki xizmatni tanlash va olish imkonini beradi.

4. Narxlar va xizmatlar: Chakana savdo mahsulotni sotish bilan birga, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, mahsulotni qaytarish yoki almashtirish, kafolatlar taqdim etish kabi xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon iste'molchining xarid qilish tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

5. Bozorni tartibga solish: Chakana savdo bozorda muhim rol o‘ynaydi, chunki u iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, raqobatni oshiradi va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, chakana savdo iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi.

6. Texnologiyalarning roli: Bugungi kunda chakana savdo, raqamli texnologiyalar va elektron tijorat orqali ham amalga oshiriladi. Onlayn do‘konlar va mobil ilovalar orqali mahsulotlar sotiladi, bu esa iste'molchilarga savdo jarayonini qulaylashtiradi.

Chakana savdo korxonalari o‘zlarining turiga qarab, o‘z faoliyatlarida turli strategiyalardan foydalanadilar.

Tovarlar va xizmatlar — chakana savdo tizimining markaziy elementi bo‘lib, ular iste'molchilarga sotiladi. Tovarlar quyidagi turlarda bo‘lishi mumkin:

- Oziq-ovqat mahsulotlari: Supermarketlar va do‘konlarda asosiy sotiladigan tovarlar.
- No-ovqat mahsulotlari**:** Kiyim-kechak, elektronika, maishiy texnika va boshqalar.
- Xizmatlar**:** Ba'zi chakana savdo korxonalari, masalan, onlayn do‘konlar yoki supermarketlar, mijozlarga xizmatlar ham taklif etadi (masalan, yetkazib berish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, o‘rnatish xizmatlari).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va vodiy viloyatlari 2020-2023-yillar chakana savdo tovar aylanmasi tahlili

mlrd.so‘m

№	Hududlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	O‘zbekiston Respublikasi	199518,8	216694,6	270687,2	330448,1
2	Andijon viloyati	14810,1	15376,3	19046,9	22770,8
3	Namangan viloyati	12233,8	13541,9	17273,1	20665,8
4	Farg‘ona viloyati	16414,8	18850	22448,5	27781,8

Yuqoridagi jadvalda chakana savdo aylanmasi tahlili keltirilgan. Unga ko‘ra 2020-2023-yillarda mamlakatimizda chakana savdo aylanmasi 1,5 baravarga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Andijon viloyati chakana savdosi esa 1,3 baravarga, Namangan va Farg‘ona viloyatlari

chakana savdosi 1,7 baravar o‘sishga erishgan. Respublika chakana savdo aylanmasi tarkibida viloyatlar ulushini tahlil etadigan bo‘lsak 2020 yilda Andijon viloyati 7,4 foizini, Namangan 6,1 foizni va Farg‘ona 8,2 foizni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich 2023 yilga kelib Andijon viloyati 6,8 foizini, Namangan 6,2 foizni va Farg‘ona 8,4 foizni tashkil etgan.

2-jadval

2020-2023-yillarda Namangan viloyati chakana savdo aylanmasi tahlili

mlrd.so‘m

№	Hududlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	Namangan viloyati	12233,8	13541,9	17273,1	20665,8
2	Namangan shahri	5074,7	5073,2	6275,8	7526,1
3	Mingbuloq tumani	295,4	380,3	477,3	599,9
4	Kosonsoy tumani	694,8	864,1	1068,3	1261,5
5	Namangan tumani	441,2	517	723,8	864,5
6	Norin tumani	753,6	926,6	1158,1	1397,2
7	Pop tumani	1069,9	936,1	1241,2	1540,7
8	To‘raqo‘rg‘on tumani	685,8	978,7	1246,2	1426,5
9	Uychi tumani	530,1	747,4	972,9	1174,5
10	Uchqo‘rg‘on tumani	544,5	653,8	907,3	1084,8
11	Chortoq tumani	514,5	635,5	859,6	1046,3
12	Chust tumani	962,2	962	1226,3	1434,6
13	Yangiqo‘rg‘on tumani	667,2	867,2	1116,5	1309

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra Namangan viloyatida 2020-2024-yillarda chakana savdo aylanmasi o‘sish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, 2020 –yilga nisbatan 1,6 barobarga o‘sishga erishgan. Viloyatning Mingbuloq, To‘raqo‘rg‘on, Chortoq va Uychi tumanlarida tahlil qilinayotgan davr oralig‘ida 2 baravar o‘sish ko‘rsatkichiga erishilgan.

Xulosa. Namangan viloyatida tumanida chakana savdo sohasining rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- Aholining o‘z-o‘zini band qilgan qismini rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish orqali yangi chakana nuqtalar ochilishiga rag‘bat berish.
- “Mahalliy mahsulotlar burchagi” loyihalarini joriy etish (supermarketlar ichida);.
- Viloyat ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chakana savdo tarmoqlarida ustuvor ravishda joylashtirish.
- Zamonaviy savdo markazlari (mall), logistika markazlari va yetkazib berish punktlarini tashkil qilish.
- Elektron savdo platformalariga (marketplace) kirishni soddalashtirish va subsidiyalar ajratish.
- Mahsulot narxlari, hajmlari va sotuv dinamikasini real vaqt rejimida kuzatuvchi tizimlar yaratish;
- Aholi zich yashaydigan hududlarda ko‘p funksiyali savdo klasterlari barpo etish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni qo‘llash sohada ijobiy natijalar olib keladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. PF-158. 11.09.2023
2. ФОРМИРОВАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТАРИЯ ОЦЕНКИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ СФЕРЫ ТОРГОВЛИ avtoreferat Диканов Максим Юрьевич. Шахты-2011
3. “PROSPECTS AND OPPORTUNITIES IN RETAIL SECTOR” Dr. T. B. Gadhave, Prof. V. A. Pai. Indian journals.com Volume 2. August 2012
4. Lex.uz
5. Dissercat.com

НАМАНГАН ВИЛОЯТИДА ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА ХИЗМАТЛАРИ СОҲАСИДА КЛАСТЕРЛАШУВ ЖАРАНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АМАЛИЙ ИМКОНИЯТЛАРИ

Усубжонов Захриддин Васлиддин ўғли
Наманган давлат техника университети
“Маркетинг” кафедраси PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.15390887

Аннотация. *Мақолада Наманган вилоятида қурилиш материаллари ишлаб чиқариш ва унга хизмат кўрсатиш соҳасида кластерлашувни ташкил этишнинг ташкилий имкониятлари таҳлил қилинган. Вилоятда қурилиш материаллари бозорини ривожлантиришда кластерлаштириш ахамияти баён этилган.*

Калит сузлар: *Кластер, қурилиш кластерлари, ахолининг уй-жой билан таъминланиши, қўшимча қиймат занжири, револьвер кредитлар, ихтисослаштирилган туманлар, саноат кооперацияси.*

Кириш. Мамлакат иқтисодиёти рақобатбардошлигини оширищда замонавий маркетинг стратегияларидан фойдаланиш давлат, бизнес, илм-фаннинг ягона ўзаро хамкорлик тизимини ривожлантириш асосида яратишни тақазо этмоқда. Бунга фақат “кластер” ёндашуви орқалигина эришилади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги фармони тасдиқланди. Тараққиёт стратегиясида кўрсатилган еттита устувор йўналишларни амалга ошириш учун, хар бир йўналишни ривожлантириш бўйича алоҳида мақсадлар белгиланди. **“Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш ”** бўйича кўрсатилган 22-мақсад: “ Миллий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш ва ялпи ички маҳсулотда саноат улушини оширишга қаратилган саноат сиёсатини давом эттириб, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини 1,4 бараварга ошириш” тўғрисида бўлиб, унда белгиланган вазифани амалга ошириш бўйича йўналишлар кўрсатилган:

- ✓ Саноатнинг етакчи тармоқлари ва иқтисодиётни янада либераллаштириш ҳамда трансформация жараёнларини якунлаш
- ✓ **Қурилиш материаллари ишлаб чиқариш ҳажмини 2 бараварга кўпайтириш**
- ✓ Йирик саноат тармоқлари ва ҳудудий корхоналар ўртасида саноат кооперацияни ривожлантириш каби бир қатор йўналишлар белгиланган.

Тараққиёт стратегиясининг 2 иловасида амалга ошириш механизмлари келтирилган бўлиб, унга кўра 2022-2026 йилларда 5 млрд АҚШ долларлик лойиҳаларини амалга ошириш орқали қурилиш материаллари соҳасини янада ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш ва бунда:

- ҳудудларда **14 та** уй-жой қурилиш кластерлари ва **8 та** ихтисослаштирилган туман (шаҳар)ларда қурилиш материаллари ишлаб чиқариш кластерларини ташкил этиш ҳамда **2 ой** муддатда лойиҳалар рўйхатини шакллантириш;

-16 та ихтисослаштирилган туман (шаҳар)ларда бошқа ҳудудлар билан саноат кооперациясини йўлга қўйиш;

- янги турдаги маҳсулотларни ўзлаштириш ва бошқа қурилиш харажатларини камайтириш ҳисобига қурилишга кетаётган вақтни **30 фоиз**га камайтириш ҳамда қурилиш таннархини **20 фоиз**га арзонлаштириш;

-соҳадаги **1 650 та** корхоналарда техник талабларни амалда қўлланишини баҳолаб, корхоналарда **4,5 минг**дан зиёд халқаро стандартлар ва **6 та** техник регламентларни жорий қилиш, экспортёр корхоналарда чет мамлакатларнинг талабларини етказиш бўйича корхонабай чора-тадбирларни белгилаб, амалга ошириш каби чора тадбирлар белгиланган. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2-декабр куни "**Қурилиш материаллари саноатини ривожлантириш ва аҳолини уй-жой билан таъминлаш масалалари бўйича"** видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Йиғилишда қурилиш материаллари нархини арзонлаштириш масаласига алоҳида эътибор қаратилиб, бунда кластер усули самарали экани қайд этилди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонларидан кластерлар фаолиятини ташкил этиш бўйича шундай фикр билдирилди : **"Инфратузилма харажатларини қисқартириш учун бу кластерларни мавжуд хомашё ёки йирик корхоналар атрофида ташкил этиш керак. Уларнинг ёнида логистика, илм ва инновация марказлари, замонавий лаборатория ташкил этиб, бозорни ўрганишни бирлаштирса, экспорт ва ички бозорларда рақобатдош кластер пайдо бўлади". Мамлакатимизда кластерлар фаолиятини ташкил этиш бўйича бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилиши белгиланди**:

- 2022 йилда янги ташкил этиладиган кластерлар инфратузилмасига 200 миллиард сўм ажратилиши;
- Қурилиш кластерларига айланма маблағ учун 10 миллиард сўмдан револьвер кредитлар, замонавий техника ва ускуналар сотиб олиш учун 2 миллион долларлик узоқ муддатли кредитлар ҳамда 2 йилга божхона имтиёзлари берилиши белгиланди;

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. "Кластер" атамаси французча сўз бўлиб, "панжа", "боғлам", "гурух" "тупланиш", "турғун" маъноларини англатади. Шу билан бирга, "кластер" танланма тадқиқотларнинг бир усули сифатида ҳам ифодаланади. Кластер назариясининг ривожланишида (Америка, Британия, Скандинавия ва бошқалар) илмий мактаблари шаклланган.

Ҳусусан, Америка олимлари М.Портернинг **«рақобатда устунлик назарияси»**,[1] М.Энрайт, С.Резенфельд, П.Маскелл ва М.Лоренценнинг **«минтақавий кластерлар концепцияси»**,[2] А.Маршаллнинг **«саноат ҳудудлари назарияси»**,[3] П.Бекатиннинг **«Итальян саноат округлари назариялари»**,[4] М.Сторпернинг **«идеал»** ҳудудий кластер назариялари яратилган. «Қўшимча қиймат» ва «кластерлар занжири уйғунлиги» каби назариялар ҳам шу гуруҳдан ўрин олган. Келтирилган назарияларда кластер – товар (хизмат) ишлаб чиқарувчиларини ягона технологик занжирини ҳудуддаги инжиниринг, маркетинг, дизайн ва бошқа хизмат кўрсатувчи субъектлар фаолияти билан уйғунлашишига асосланган инновацион стратегия эканлиги назарда тутилади. "Кластер" назариясини асоси бўлиб Алъфред Маршаллнинг XIX аср охирида ёзилган "Иктисодиёт принциплари" номли

асарида (1890й) “ихтисослашган тармоқ- соҳаларнинг алохида худудларда уйгунлашиши” туғрисидаги фикр-мулохазалари хисобланади. “Кластер” назариясини асосчиси америкалик олим Майкл Портер хисобланади. Майкл Портер кластер ёндашувини қуйидагича талқин этади: “Кластер”-бу ишлаб чиқарувчи корхоналар куч ғайратини асосий муаммо – товарларнинг рақобатбардошлигини оширишга қаратиш ва улар билан хамкорликда ягона технологик занжирда (алоқада) бўлган хизмат кўрсатувчи ҳамда илмий-услубий бўғинлар мажмуасини шакллантиришдан иборат. Кластер - бу яқин жойлашган корхона ва ташкилотлар умумийлигининг муайян шакли мавжудлигини таъминлайдиган, ўзаро харакат тезлиги ҳамда даражасини оширадиган географик минтақа доирасидаги тармоқ шаклидир. Яхши ишлай олган кластер босқичма босқич бўйсуниш тармоқлари доирасидан чиқади ва тадбиркорлар, корхоналар ҳамда хамкорлик бўйича бошқа ташкилотлар ўртасида харакатлар ўзаро алоқаларга айланади[1]. Кластерларни шакллантириш ва ривожлантиришнинг услубий - ташкилий муаммолари жахондаги етук олимлардан А.Маршалл, К.Кетелс, О.Солвел, М.Энрайтларнинг хам ишларида хам ўрганилган. Худудларда кластерлар ташкил этишнинг турли жихатлари Россия ва МДХ олимларидан В.В. Илъин, А.М.Колин, К.А.Вера, У.Х.Абдуллоев, Л.Г.Юлия, Е.В.Юлия[5] лар томонидан хам тадқиқ этилган. Улар кластерларнинг мохияти, ишлаб чиқаришни замонавий ташкил этишда кластерлар роли, худудларда қурилиш материаллари кластери ташкил этиш учун ишлаб чиқариш қувватлари фаолиятини такомиллаштириш, тармоқни ҳудудий кластерлашнинг мавжуд ташкилий, иқтисодий ва ресурс шартларини тадқиқ қилиш ва таҳлил қилишга асосланган бўлиши кераклигини ёритиб берган. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, корхоналарнинг кластерлашуви саноатнинг изчил ривожланишига имкон яратади, харажатларни камайтиради, ички бозорнинг ўсишига ва ташқи бозорларга чиқишга, ҳудудларнинг ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмасини яратишга ёрдам беради. Юқорида келтирилган маълумотларга биноан саноатда кластерлаштиришни ташкил этиш ривожланиш омили эканлигини кўришимиз мумкин. Хозирги кунда мамлакатимизда қурилиш материаллари саноати ва қурилиш материаллари бозорини ривожлантириш бўйича бир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда аммо вилоятда кластерлашнинг роли ва уни ташкил этиш масалалари хали ўрганилгани йўқ.

Тахлил.

Наманган вилоятида қурилиш материаллари бозорини ривожлантириш, ахолини арзон ва сифатли уй-жойлар билан таъминлаш, мавжуд хом ашё ресурсларидан оптимал фойдаланиш учун вилоятда илм-фан инновация марказлари, замонавий лаборатория ташкил этиб, ишлаб чиқариш ва бозорни ўрганишни бирлаштириб, экспорт ва ички бозорларда рақобатдош кластер ташкил қилиш орқали эришиш мумкин деб хисоблаймиз. Қурилиш материалларини ишлаб чиқариш бўйича кластернинг асосий вазифаси саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш базасини янгилаш ва кенгайтириш орқали қурилиш материаллари ишлаб чиқаришни такомиллаштириш билан бирга, иқтисодиётни ривожлантиришга кўмаклашиш, аҳолининг турмуш даражасини яхшилаш, уй-жой қурилиши бозоридаги вазиятни фаоллаштиришдан иборат.

Вилоятда қурилиш материаллари кластерни яратиш учун Наманган вилоятида бир қатор омиллар мавжуд: хом ашё ресурслар захираларининг мавжудлиги, қурилиш

[1] М.Портер. Конкуренция. Издателский дом “Вильямс” М.Санк Петербург. 2005.

материаллари ишлаб чиқарувчи йирик худудий корхоналарнинг мавжудлиги, ривожланган инфратузилма, юксак салохиятли кадрлар тайёрлаш бўйича ОТМ мавжудлиги, лойиха ташкилотлари фаолияти, қурилиш материаллари ишлаб чиқаришга туманларниг ихтисослашуви, транспорт йўналишлари жойлашиши қулайлиги, хорижий давлатлар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш каби бир қатор омиллар мавжуд.

Наманган қурилиш материаллари саноатини "кластер" стратегияси асосида ривожлантириш учун куйидаги имкониятлар мавжуд:

Биринчидан, Наманган вилояти ўзининг жойлашуви, геологик имкониятлари жихатидан қурилиш материалларини ривожлантириш учун жуда қулай худуд хисобланади. Сабаби бу ерда минерал хом ашё ресурслари мавжуд. Вилоятда қурилиш материаллари саноатини ривожлантириш дастури асосида амалга оширилиши режалаштирилиётган лойихаларнинг кўпчилиги цемент, қурилиш ойнаси , пардозбоп тошлар, қуруқ қурилиш материаллари ишлаб чиқаришга асосланган чунки уларни хом ашёсининг катта захиралари мавжуд.Вилоятдаги мавжуд конларда 2,5 млн тн ойна хом ашёси, 56,9 млн тн цемент ашёси, 5,8 млн $м^3$ пардозбоп тошлар, 9,8 млн тн охактош ва 8,4 млн тн қурилиш тошлари каби кўплаб конларда қурилиш материаллари захиралар мавжуд.

Иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 09.06.2021 йилдаги "Худудларнинг саноат салохиятини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар" тўғрисидаги (ПФ-6244 сонли) фармонининг 2-иловасига мувофиқ 24 та туманларни қурилиш материаллари ишлаб чиқаришга ихтисослаштириш белгиланган. Унга кўра Наманган вилоятининг Уйчи, Учқўрғон, Чуст туманлари пардозбоп ғишт ишлаб чиқариш ва Поп тумани табиий тошни қайта ишлаш, пардозбоп плиталар ишлаб чиқаришга ихтисослашуви белгиланган.Унда Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлигига махаллий саноатни жадал ривожлантиришни таъминлаш бўйича бир қатор вазифалар юклатилган:

-"қўшимча қиймат занжирлари"ни кенгайтириш, ишлаб чиқариш таннархи ва харажатларини камайтириш, тайёр махсулотлар ва материаллар ишлаб чиқаришни махаллийлаштиришни чуқурлаштириш асосида ишлаб чиқарилаётган махсулотларнинг рақобатбардошлигини ошириш;

-замонавий тенденцияларни хисобга олган холда махаллий саноат корхоналир учун профессионал кадрлар тайёрлаш, тренинг дастурларидан кенг фойдаланиш ва бошқалар.

Учинчидан, махаллий ва жахон бозорларидаги рақобат курашида қатнашиш ва ўз ўрнини эгаллашга интилаётган фирмалар ва корхоналар жуда кўп, хали тайёргарлик жараёнидаги бозор субъектлари бор. Буларнинг ташаббусини қўллаб-қувватлаш бўйича мамлакатда яратилаётган ижобий бизнес мухити – солиқ имтиёзлари, сохани ривожлантириш учун ажратилаётган имтиёзли кредитлар, ресурслардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтирилиши муаммо ечимини бир томони. Асосий масала эса, ички ва ташқи бозорлардаги рақобат мухитига фақатгина маркетинг тадқиқотларини олдиндан ўтказиш, талаб,таклиф ва бахо ўзгаришларини ўз вақтида англаб бориш, товарлар рекламасини ташкил қила билиш ва сотиш усулларини танлаш каби бош масалалар мавжуд. Хозирда ишлаб турган корхоналар мустақиллигига халақит бермаган ҳолда уларга илмий – услубий ва бошқа хизматлар кўрсатиш лозим.

Тўртинчидан, собиқ Наманган мухандислик-педагогика институти "мухандислик-қурилиш" институтига айлантирилиб, бутун фаолияти қурилиш ва қурилиш материаллари корхоналари учун қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкцияларини ишлаб

чиқариш, архитектуравий ва дастурий лойихалаш, мухандислик коммуникациялари қурилиши ва монтажи, бино-иншоотлар қурилиши, транспорт логистикаси ва хизматлар сохаси, информатика ва ахборот технологияси, шахарсозлик ва коммунал инфратузулмани бошқариш, метрология ва стандартлаштириш, иқтисодиёт, менежмент каби сохаларда кадрлар тайёрлашга ихтисослаштирилди. Ушбу таълим марказида Фарғона водийси вилоятлари учун қурилиш ва қурилиш материаллари саноати корхоналарининг илмий-услубий маркази ҳам шаклланмоқда. Аммо мазкур илмий салохиятдан самарали фойдаланишнинг асосий йўналиши ишлаб чиқариш билан узвий боғланишдир. Ишлаб чиқаришни институтнинг ўқув ва илмий жараёнларига боғлаш рақобатбардош мутахассислар тайёрлашни ва товарлар ишлаб чиқаришни кафолатлайди ҳамда саноатни инновацион йўл билан ривожланишига имкониятлар яратади. Мазкур муаммони “кластер” назарияси асосидаги “Наманган қурилиш материаллари ва хизматлари” кластери шаклида ечимини топиш мумкин деб хисоблаймиз. “Наманган қурилиш материаллари ва хизматлари” кластерини ташкил этилиши Наманганда замонавий “кластер” стратегиясига асосланган қурилиш ва қурилиш материаллари саноатни фундаментал ривожлантириш тизимини шакллантиришга ва чет эл инвесторларини янада кўпроқ жалб этишга имкониятлар яратади деб хисоблаймиз.

“Наманган қурилиш материаллари ва хизматлари” кластерини ташкил этиш тармоқнинг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини тегишли равишда юқори суръатларда ўсини таъминлашнинг асоси хисобланади. Унинг иқтисодий самарадорлигининг асосий меъзонларини қуйидагиларда акс этади:

- тармоқда ахоли бандлик даражасини ошиши
- экспорт салохиятини ошиши
- тармоқнинг бюжетга тўловлардаги хиссасини ортиб бориши.

-қурилиш материаллари бозорини янги махсулотлар билан бойитиш ва бозорни ривожлантириш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Портер М. «Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран» (пер. с англ.) М.: Издательств «Международные отношения», 1993.
2. Enright M. Regional Clustersand Economic Development: A Research Agenda, in Staber, U., Schaefer, N. and Sharma, B., (Eds.) “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”: Walter de Gruyter, pp. 190-213.
3. Маршалл А. Принципы экономической науки, т. I - III. Пер. с англ. — М.: Издательская группа «Прогресс», 1993.
4. Бегаттин П. - Becattini G. From Marshalls to the Italian «Industrial Districts»/ www.copetitivness.org. 2015
5. В.В.Илъин “Методи формирования кластеров в промышленности” Авт.Дисс. кан. Эко. Наук / Санк-Перетбург-2010 У.Х.Абдуллоев “Формирование развитие регионалъного строителъного кластера”. Авт.Дисс. кан. Эко. Наук/ Душанбе-2019
6. Е.В.Юлия “Моделирование логистеческих бизнес-процессов в кластере промышленности строителъных материалов” Авт.Дисс. кан. Эко. Наук/ Ростав-на-Дону-2016
7. А.М.Колин “Формирование развитие кластеров в экономике региона” Авт.Дисс. кан.

Эко. Наук/ Владимир-2010
8. Л.Г.Юлия “Кластеры как рыночный институт пространсвенного развития экономики региона” Авт. Дисс. Дос. Эко.Наук/ Екатеринбург-2009
9. Бондаренко Андрей Александрович “Организационно –экономический механизм развития предприятий промышленности строителъных материалов” Авт. Дисс. Кан. Эко.наук. Москва-2019
10. Янги Ўзбекистонинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси. http://2022-2026.strategy.uz/strategy.php
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 09.06.2021 йилдаги “Худудларнинг саноат салохиятини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар” тўғрисидаги (ПФ-6244 сонли) фармонини./ nrm.uz/
12. namstat.uz

"SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN'S TOURISM AND HOSPITALITY SECTOR"

Asghar Mehmood Sufyan
Senior lecturer in MDIST
https://doi.org/10.5281/zenodo.15389033

Abstract. *Sustainable development has become a popular trend in all economies. Sustainability is getting extraordinary attention from governments, ministries, government institutions, scholars and economists attempting to provide practical solutions to all main sustainable issues.*

Sustainable development and responsible tourism in the tourism and hospitality industry is essential to mitigate environmental degradation, promote socio-economic equity, and ensure the long-term viability of destinations.

Sustainable development in the tourism and hospitality industry in Uzbekistan *is getting momentum and the attention of the government in recent years. This sustainable momentum and government attention geared up by the country's rich cultural heritage, historical landmarks, and natural beauty. Uzbekistan is positioning the country as a prominent key destination hub along the Silk Road. To keep in view, the future tourism demand, to meet the UNWTO requirements, there is great importance to balance tourism growth with environmental preservation, cultural integrity, and socio-economic benefits.*

This study examines the integration of sustainability practices into tourism and hospitality operations, emphasizing environmental conservation, cultural preservation, and community empowerment. This paper also examines the efforts and challenges of implementing sustainable tourism practices in Uzbekistan, focusing on eco-friendly initiatives, community involvement, and policy frameworks. The main strategies are the promotion of eco-tourism, restoring of historical places and the development of sustainable tourism infrastructure that minimizes environmental impact. We will also analyze the role of government policies, international collaborations, and private sector engagement in fostering sustainable tourism.

Keywords*: sustainability, Sustainable tourism development in Uzbekistan, Uzbek government policies for sustainability, eco-tourism, responsible tourism, cultural preservation, community-based tourism, Sustainable Development Goals (UNWTO SDGs).*

Introduction



President of the Republic of Uzbekistan H.E. Shavkat Mirziyoyev addressed at the 25th session of the General Assembly of the World Tourism Organization (16/10/2023)

President emphasis in his speech on the seven point guidelines agenda for cooperation and development of tourism

industry of Uzbekistan including sustainable tourism.

- President, advise prioritizing" **Green Tourism**" initiatives by focusing on developing a global "**Green Tourism" action plan.**
- Launching a program of "Best City Promoting Green Tourism" award and creating a dedicated "Global Green Tourism Startups' Laboratory" jointly with the UNWTO.
- President urge to promote sustainable tourism practices in Uzbekistan, especially around the Silk Road region.
- President also highlights the value of training for tourism professionals in sustainable practices and the involvement of institutions in this regard.
- President also put emphasis on the development of innovative green tourism solutions by performance based benefits like a "Global Green Tourism Startups' Laboratory" to support and facilitate new innovative ideas and technologies.

(president.uz)

In broader way, the President provide the roadmap for sustainable tourism in Uzbekistan and instruct a strong focus on environmental protection, international collaboration, education, and boosting the country's rich cultural heritage to develop responsible tourism practices.

On 29th January, 2025, Tourism Committee of Uzbekistan, Agency for Strategic Reforms, and international consulting firm "Reformatics" signed a trilateral agreement to formulate and design a comprehensive tourism strategical plan through 2040. The fundamental goal is to develop and promote the tourism sector's contribution to the economy of the country to 7% of the GDP by 2040. The strategical plan fixed challenging goals, including to expand domestic tourist arrivals to 30 million annually and international arrivals to 20 million.

The strategy is planned to be developed by the end of the year 2025. Additional information will be available once the strategy has been developed and implemented comprehensively. (Ministry of Tourism Uzbekistan)

Sustainable tourism development watch over its present and future environmental, social and economic ramifications, addressing with the needs and apprehensions of visitors, the industry, the environment and host communities (UN World Travel Organization, para. 1.1) SF-MST – Chapter 1. Introduction.

We all travel for various reasons, and most of us would agree that one of the greatest aspects of travel is experiencing something new and unique. Since people, culture, history, wildlife, and landscapes are essential to our travel experiences, preserving and supporting them should be a priority for every tourism and travel organization, as well as every traveler.

(EN-Travelife-Responsible-Guest-Guide-V1.0-3.pdf)

Literature Review:

1. Sustainable tourism and its importance in the global tourism industry.

According to UNWTO the definition of a sustainable tourism is a "tourism that take into account all its current and future economic, social, and environmental impacts while considering the needs of visitors, the industry, the environment, and host communities". This is a crucial and important strategy for reducing the impact of climate change, loss of biodiversity, and cultural homogenization. Incorporating and integrating sustainability into tourism practices & policies, destinations may secure natural landscapes, encourage and promote responsible tourism practices, and uphold the prosperity, health concerns & quality of life of local populations.

One of the important and crucial benefits of sustainable tourism is its impact in boosting the economy. It strengthens local businesses, encourage and support fair compensation, and generate job opportunities & employments, especially in developing regions where tourism plays a major role in the economy.

In conjunction with that, it promotes cultural exchange and preservation of heritage by supporting authentic local experiences and protecting historical sites/landmarks.

From the environment perspective, sustainable tourism encourages practices like lowering carbon emissions, supporting eco-friendly accommodations, and managing waste effectively. Ecotourism, a form of sustainable tourism, particularly emphasizes on conservation initiatives, like safeguarding wildlife and supporting community-driven environmental programs.1

2. The Uzbekistan's Tourism Development strategy for 2021-2025 outlines an ambitious roadmap to promote the country as a premier travel destination through enhancing infrastructure, expanding tourism experiences, introducing and executing policy modifications. This strategy is an integral component of the broader "New Uzbekistan Development plan for 2022-2025," which point out the pivotal role of tourism in the country's economic growth.2

The following Strategic Initiatives was taken:

- **Infrastructure Development**
- **Diversification of Tourism Products**
- **Policy and Regulatory Reforms**
- **Digital Integration and Marketing**

3. Sustainability has gained the attention of global tourism industry and has increasingly recognized the importance of it, with governments, businesses, and organizations implementing policies that encourage responsible tourism practices. Certification programs like the Global Sustainable Tourism Council (GSTC) and steps taken by the UN's Sustainable Development Goals (SDGs) which strongly stress the critical and important role of sustainability in shaping responsible tourism policies and planning.

In short as a conclusion, sustainable tourism defines a pathway to harmonize economic growth while upholding environmental integrity and social responsibility. With the ongoing transformation of the industry, implementing sustainable strategies will become increasingly vital and protecting the benefits of tourism for both current and future generations without sacrificing the planet's resources and cultural diversity.1

4. Alternative economic sectors and their components are increasingly becoming subjects of intense discussion in socio-economic spheres. Tourism, when strategically developed, represents one such alternative that could serve as a catalyst for infrastructural growth in the economy. In today's dynamic and globalized world economy, tourism serves as a pivotal source of currency earnings in economically advanced nations, propelling them onto the international stage and elevating the overall economic development and welfare of their citizens. 5

5. Sustainability has become a major concern as organizations face an increased level of risk and uncertainty. Currently, most countries tend to prioritize sustainability practices while exploring their potential for better organizational performance. Further- more, some organizations have adopted sustainability practices as strategic initiatives and measures to enhance their success in terms of financial performance and the reputation of the firm. The main empirical contribution of this study is a knowledge base and a foundation for effective decision making and advice on

well-aligned strategies. Hence, this study's main objective was to determine the impact of sustainability practices on the going concern of travel and tourism companies in developed and developing countries. 5

6. People travel for different reasons and most of the tourists would be agree that one of the best things about travel is having new and unique experiences. People, culture, history, wildlife and scenery play such important roles in our travel experiences, protecting and supporting these things should be at the heart of every tourism and travel organization, and every traveler. 14. Responsible Tourism, EN-Travelife-Responsible-Guest-Guide https://www.mdpi.com/2071-1050/14/24/17046

7. Study identifies key issues and barriers to sustainable tourism in Uzbekistan and proposes effective culturalization strategies to overcome these challenges.

Department of International Trade, Jeonbuk National University, Jeonju-si 54896, Republic of Korea. Faculty of Economics, Urgench State University, Urgench 220100, Uzbekistan

Institute of Natural Resource Sciences, Zurich University of Applied Sciences (ZHAW), 8820 Wädenswil, Switzerland. MDPI *https://www.mdpi.com*

8. This world bank report highlights the integration of disaster risk management into the conservation of Uzbekistan's cultural heritage sites and the promotion of sustainable tourism.

https://documents1.worldbank.org/curated/en/833831602615313609/pdf/Uzbekistan-Resilient-Cultural-Heritage-and-Sustainable-Tourism-Development.pdf

Methodology:

1- Research Approach

In this research, I used a **qualitative approach** to investigate sustainable development in Uzbekistan's tourism and hospitality industry. Both primary data (where applicable) and secondary **data analysis** are being used to comprehend into current government policies, overall challenges, and opportunities.

Reason & Justification: Qualitative approach is more suitable for this research because it enables researcher to get comprehensive understanding of policies, industry trends, and expert opinions on sustainability in tourism.

2- Investigation plan & Research Design

This research applying a **informative and exploratory design**, integrating both:

Secondary Data analysis (Literature Review, Reports, Policies) and

Primary data collection (if applicable, like Interviews, Surveys & Case studies)

3- Data Acquisition Techniques used for the research

Secondary Data Collection (Desk study & research)

- **Main Sources:**

1. Government reports (for instance, Uzbekistan's Ministry of Tourism and Cultural
2. Heritage, State Committee for Ecology and Environmental Protection)
3. Articles and academic papers on sustainable tourism in Uzbekistan.
4. Various reports from international organizations (e.g., UN, UNWTO, UNESCO, World Bank, ADB).
5. Sustainability efforts and developments from Uzbek tourism businesses and eco-tourism projects.

- **Objective & Reasons:**

1. To do the analysis of existing sustainable tourism policies, trends, and environmental initiatives.

2. To highlight hurdles, gaps and constrains in implementing sustainable tourism approaches for **collecting Primary data (if applicable)**

3. This study includes empirical data. The following methods can be applied:

- Semi-Structured Interviews:
- **Sample participants:** Professionals and experts from tourism industry, government officials, environmental organizations and tourism related business people.
- **Sample Size:** 8–15 main and direct stakeholders
- **Purpose:** To get information and knowledge on the implementation and challenges of sustainable tourism in Uzbekistan.

4. Surveys (optional and if applicable, for Quantitative analysis)

- **Participants:** Environmental organizations, Tourists, local business owners, and tourism professionals and experts.

Sample Size: 100+ respondents (depending on feasibility)

Question Type: Close-ended (Likert scale), open-ended questions

Purpose: To assess public perception and awareness of sustainable tourism initiatives

3. Case Study Analysis

- **Examples could be as follows:**
- Sustainable tourism projects in Uzbekistan (e.g., eco-tourism Projects in Hydercol and in Nuratau mountains)
- UNESCO heritage sites in Samarkand, Bukhara and Khiva
- Green hospitality initiatives in Uzbekistan's hotels and resorts industry.
- **Purpose:** To get information and knowledge on the from real-life implementations prime practices and lessons learned.

4- Research Analysis Approaches:

A. Qualitative Data Evaluation methods.

- **Conceptual coding and Content analysis:** Conceptual and thematic coding of government policies, reports, and interview responses to identify main and crucial themes.
- **Comparative Examination and Review:** Analyzing Uzbekistan's sustainable tourism policies in the context of international best practices.

B. Quantitative Data Evaluation methods (if applicable)

- **Statistical description:** If surveys are carried out, data will be examined using statistical tools (e.g., SPSS, Excel) to pinpoint and analyze trends and patterns.

5- Ethical Issues and concerns:

- **Privacy and Secrecy:** Personal information from interviews and surveys will remain confidential.
- **Acknowledgement of Consent:** All participants will be provided with information about the study's purpose and their right to leave and withdraw their consent.
- **Accuracy & Precision:** Authentication of findings through different sources to make sure credibility.

6- Challenges and limitations of the Research

- **Insufficient and Inadequate access to data:**

Due to lack of media reporting and publicity, few sustainability projects in Uzbekistan are not getting focus publically.

- **Bias of the Respondent:**

Interviewees and survey respondents may provide socially desirable answers or due to lack of information, answers are not appropriate.

- **Time and scheduling pressure:**

Carrying out extensive primary research could be expensive and time consuming.

Conclusion

This research method and study design establish a **thorough & comprehensive analysis** of sustainable tourism in Uzbekistan by synthesizing policy review**, professional's understanding and various case studies**. In case primary data is incorporated, **interviews and surveys** will create valuable direct & first-hand experience.

Sustainable use of environmental resources that embed the important factors in tourism development, preserving vital and key ecological processes and protecting natural heritage and biological diversity.

REFERENCES

1. UNWTO (2020). Sustainable Development of Tourism. United Nations World Tourism Organization. https://www.unwto.org/sustainable-development
2. Hall, C. M., & Gössling, S. (2019). Sustainable Tourism Development: Theoretical and Practical Approaches. Routledge.
3. Uzbekistan State Committee for Tourism Development (2021). https://uzbektourism.uz/en
4. Tourism Development Strategy of Uzbekistan 2021-2025.
5. Abdullaev, I. & Rakhmatullaev, S. (2020). Sustainable Tourism in Uzbekistan: Challenges and Opportunities. Journal of Tourism and Heritage Studies. sustainable tourism development in uzbekistanweb-journal.ruhttps://web-journal.ru › journal › article › view
6. The Impact of Sustainability Practices on the Going Concern of the Travel and Tourism Industry: Evidence from Developed and Developing Countries https://www.mdpi.com/2071-1050/14/24/17046
7. UN (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations.
8. Paudel Khatiwada, S.; Deng, W.; Paudel, B.; Khatiwada, J.R.; Zhang, J.; Su, Y. Household livelihood strategies and implication for poverty reduction in rural areas of central Nepal. *Sustainability* **2017**, *9*, 612. [Cross EN-Travelife-Responsible-Guest-Guide-V1.0-3. pdf
9. Brundtland, G. Report of the World Commission on Environment and Development Our Common Future. Available online: https://www.are.admin.ch/are/en/home/media/publications/sustainable-development/brundtland-report.html (accessed on 10 December 2021).
10. Dimitrova, M.G. Sustainability in Tourism Enterprises Social Sustainability. Available online: https://www.researchgate.net/ publication/354342996 (accessed on 20 November 2021).
11. Jeong, E.; Jang, S.; Day, J.; Ha, S. The impact of eco-friendly practices on green image and customer attitudes: An investigation in a café setting. *Int. J. Hosp. Manag.* **2014**, *41*, 10–. [CrossRef]

12. Pasanchay, K.; Schott, C. Community-based tourism homestays' capacity to advance the Sustainable Development Goals: A holistic sustainable livelihood perspective. *Tour. Manag. Perspect.* **2021**, *37*, 100784. [CrossRef]
13. Perdana, K.; Gadzali, S.S.; Puspawijaya, R. The Sustainable Development Agenda: The Pursuit of Sustainable Tourism. In *The Palgrave Handbook of Corporate Social Responsibility*; Palgrave Macmillan: London, UK, 2021; pp. 1223–1244.
14. Vu, H.M.; Lam, T.M.; Prabhakaran, S. Perceptions of key stakeholders towards sustainable tourism development: A case study in Mekong Delta, Vietnam. *J. Asian Financ. Econ. Bus.* **2021**, *8*, 717–726.
15. Responsible Tourism, EN-Travelife-Responsible-Guest-Guide
16. https://www.mdpi.com/2071-1050/14/24/17046
17. https://www.uzdaily.uz/en/issues-of-developing-a-sustainable-tourism-model-were-discussed/

WAYS TO IMPROVE MARKETING RESEARCH IN AGRICULTURE

[1]Musayeva Shoira Azimovna, [2]Usmanova Dilfuza Ilhomovna, [3]Usmanov Shahzod Shokhrukhovich

[1]Professor of the Marketing Department of the Samarkand Institute of Economics and Service, [2]Associate Professor of the Marketing Department of the Samarkand Institute of Economics and Service, [3]Student of Samarkand Institute of Economics and Service, Bh-222 group

https://doi.org/10.5281/zenodo.15469495

Abstract. *In this article, the collection of data on the markets of agricultural products, the determination of changes in supply and demand, the selection of a market segment suitable for targeted activities, which allows the producers of agricultural products to use them effectively based on their capabilities, the organization of funds and material resources necessary for the implementation of activities, the implementation of control and evaluation of the results are considered.*

Keywords: *agriculture, product, market, activity, effect, segment, analysis, result.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlari to'g'risida ma'lumotlarto'plash talab va taklifni o'zgarishlarini aniqlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda ularni samarali ishlatishga imkon beradigan, maqsadli faoliyat yuritishga munosib bozor segmentini tanlash, tadbirlarni amalga oshirishga kerakli mablag'lar va moddiy imkoniyatlarni tashkil qilish, nazorat va natijalarni baxolarni amalga oshirish ko'rib chiqilgan.*

Kalitli so'zlar: *Qishloq xo'jaligi, mahsulot , bozor, faoliyat, samara, segment, tahlil, natija.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются сбор данных о рынках сельскохозяйственной продукции, определение изменения спроса и предложения, выбор сегмента рынка, подходящего для целевой деятельности, что позволяет производителям сельскохозяйственной продукции эффективно использовать ее исходя из своих возможностей, организация денежных и материальных ресурсов, необходимых для осуществления деятельности, осуществление контроля и оценки результатов.*

Ключевые слова: *Сельское хозяйство, продукт, рынок, деятельность, эффект, сегмент, анализ, результат.*

Introduction. The development of market infrastructure, along with improving the processes of supplying and selling agricultural products to consumers, is encouraging the production, storage, and processing of more and better quality products. In order to adapt to the market conditions arising as a result of this process, it is important to establish a marketing service in enterprises that produce and process agricultural products, in particular, farms and their councils.

Modernization requires, first of all, a spiritual renewal of the sector based on technical and technological re-equipment of production with the most advanced modern technologies. The effective implementation of all measures set out in the main directions of agricultural modernization in this area will create an opportunity to increase the economic efficiency of

production to an optimal level based on a sharp increase in the competitiveness of primary agricultural products grown in agriculture, including farms, which are the main form of economic activity. This work can be carried out only on the basis of modern marketing.

Conducting marketing research in all sectors of the economy is a complex task. Today, in the agriculture of our republic, farmers and peasant farms, as well as partly agro-firms, operate. As is known, farms mainly produce products according to state orders and partly for their own needs (melons and horticulture). This creates problems associated with the production, sale and transportation of products at the lowest cost. The purpose of these studies is to determine the strategy and tactics of agricultural enterprises in the market and ensure greater success and advantage over competitors.

Analysis of literature on the topic. If we generalize from the results of research conducted by economists and define export potential, it is understood that the export potential of industrial enterprises is understood as the current or future gross production, personnel, financial capabilities, and the resistance of endogenous and exogenous factors to the impact of export potential in foreign economic trade. Based on the above definition of export potential, it is possible to draw up a scheme of factors affecting it.

Based on foreign experience, it should be noted that many economists have been engaged in the development of marketing principles and their application in practice. Among them, we can include such famous scientists as F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall.

While the research in the field of marketing conducted in our country for many years is based on national characteristics, it is also necessary to recognize the scientists who have made a significant contribution to the development of marketing theory in the economy. These include M. Mukhammedov, M. Pardaev, R. Ibragimov. YO. Abdullaev, A. Saliev, M. Sharifkhodjaev, B. Khodiev, D. Rakhimova, Sh. Ergashkhodjaeva, Sh. Musaeva and others.

Research methodology. The research process used a systematic approach, abstract-logical thinking, grouping, comparison, factor analysis, and selective observation methods.

Analysis and results. It is emphasized that it is necessary to introduce a modern management system in the food and alcoholic beverage industry in our country, sharply increase production volumes, widely use marketing and innovation to increase the range of export-oriented products and improve their quality, and create a new system aimed at finding new markets. The task set for Uzbekistan determines the need to select the most target markets and develop marketing strategies aimed at entering these markets.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sug‘oriladigan dehqonchilikda suv resurslaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolar har tomonlama yoritilgan. Suv resurslarining mintaqaviy taqsimoti, eskirgan sug‘orish tizimlari, suvdan isrofgarchilik, iqlim o‘zgarishi ta’siri va yerlarning sho‘rlanishi kabi asosiy muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, suvdan oqilona foydalanishga doir zamonaviy yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish tizimlari va institutlararo hamkorlikning ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sug‘oriladigan dehqonchilik, suv resurslari, suvdan samarali foydalanish, suv isrofi, iqlim o‘zgarishi, tomchilatib sug‘orish, sho‘rlanish, suv siyosati.*

Abstract. *This article comprehensively highlights the issues related to the efficient use of water resources in irrigated agriculture. It analyzes key problems such as the regional distribution of water resources, outdated irrigation systems, water wastage, the impact of climate change, and soil salinization. Furthermore, the article presents modern approaches to rational water use, the application of digital technologies, drip irrigation systems, and the importance of inter-institutional cooperation.*

Keywords: *irrigated agriculture, water resources, efficient water use, water wastage, climate change, drip irrigation, salinization, water policy.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне освещаются проблемы, связанные с эффективным использованием водных ресурсов в условиях орошаемого земледелия. Проанализированы такие основные проблемы, как региональное распределение водных ресурсов, устаревшие оросительные системы, расточительное использование воды, влияние изменения климата и засоление почв. Также представлены современные подходы к рациональному использованию воды, применение цифровых технологий, капельного орошения и значимость межведомственного сотрудничества.*

Ключевые слова: *орошаемое земледелие, водные ресурсы, эффективное использование воды, расточительство воды, изменение климата, капельное орошение, засоление, водная политика.*

KIRISH

O‘zbekistonning agrar sohasida sug‘oriladigan dehqonchilik yetakchi o‘rinni egallaydi. Mamlakat hududining katta qismi qurg‘oqchil bo‘lganligi bois, dehqonchilik faqatgina sun’iy sug‘orish asosida olib boriladi. Shuning uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi nafaqat qishloq xo‘jaligi barqarorligi, balki butun iqtisodiyot xavfsizligi uchun hal qiluvchi omil sanaladi. Ayni paytda, mavjud sug‘orish tizimlarining eskirganligi, suv sarfini hisobga olish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani, hamda yer va suvdan samarasiz foydalanish oqibatida muhim muammolar yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillardagi qaror va farmonlarida suv resurslarini boshqarish, tejash va zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tashkil qilish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Ushbu maqolada sug‘oriladigan dehqonchilikda suvdan samarali foydalanishdagi asosiy to‘siqlar, ularni bartaraf etish yo‘llari va global tajribaga asoslangan takliflar keng yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

G‘ulomovning fikricha, O‘zbekistondagi sug‘oriladigan dehqonchilik tizimida suv isrofi birinchi navbatda ochiq kanallarning yaroqsizligi va notekis yer maydonlarida me’yoridan ortiq sug‘orish tufayli yuzaga keladi. U o‘z asarida ushbu holatlarning ko‘p yillik kuzatuvlar asosida hosildorlikka salbiy ta’sirini asoslab bergan. G‘ulomov yer tuzilmalarining suv tutish qobiliyati va sho‘rlanishi bilan bevosita bog‘liq texnologik qarorlarni ishlab chiqishni taklif qiladi [2].

Melievning fikricha, suvdan samarali foydalanish masalasi faqatgina texnik vositalar bilan hal bo‘lishi mumkin emas, balki bu yo‘nalishda dehqonlarning ongini o‘zgartirish, suv tejash madaniyatini singdirish ham zarur. U an’anaviy ariq uslubidagi sug‘orishning eskirganligini tanqid qilib, tomchilatib sug‘orish va lazerli tekislash texnologiyalarining afzalliklarini ilmiy asoslarda tahlil qilgan [4].

Nurmatovaning fikricha, sug‘orishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqlim o‘zgarishi fonida alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z maqolasida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari orqali tuproqdagi biologik faollik, havo almashinuvining yaxshilanishi va mineral moddalar balansi saqlanishi haqida chuqur tahlil keltirgan. Nurmatova bu texnologiyalarni kichik fermerlar uchun subsidiya orqali joriy qilishni taklif qiladi [6].

Abdullayevning fikricha, ortiqcha sug‘orish natijasida hosildorlik ko‘tarilmaydi, balki sho‘rlanish kuchayadi, bu esa yer unumdorligining keskin pasayishiga olib keladi. U o‘z maqolasida turli sho‘rlanish darajasidagi yerlar misolida suv me’yori saqlangandagi hosil hajmlari bilan solishtirma tahlil keltirib, asosli xulosalar bergan. Ayniqsa, noorganik tuzlarning yuqori darajadagi to‘planishi o‘simlik ildizlarining shikastlanishiga sabab bo‘lishini ilmiy dalillar bilan ko‘rsatgan [7].

FAO hisobotida ta’kidlanishicha, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda suvni tejash faqat texnologik yechimlar bilan emas, balki sug‘oriladigan hududlarni zonalashtirish, ya’ni agroekologik sharoitga mos ekinlarni tanlash orqali ham hal etiladi. Hisobotda ayniqsa suv tanqisligi bo‘yicha xavf guruhiga kiruvchi mintaqalarda ekin strukturasi qayta ko‘rib chiqilishi kerakligi urg‘ulanadi [3].

IWMI hisobotiga ko‘ra, suvdan samarali foydalanish masalasida asosiy to‘siqlardan biri bu institutlararo muvofiqlikning pastligi, ya’ni Suv xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va mahalliy boshqaruvlar o‘rtasida aniq strategik hamkorlik yo‘qligidir. Hisobotda kompleks boshqaruv — ya’ni integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish yondashuvi taklif etiladi [5].

Karimovning fikricha, ma’naviy yuksalish, jumladan, shaxsiy javobgarlik, mulk tuyg‘usi va ekologik ongning shakllanishi suvdan foydalanish madaniyatini tubdan o‘zgartiradi. U “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida bevosita suv yoki dehqonchilik haqida emas, balki umumiy mas’uliyat hissi orqali resurslardan oqilona foydalanish g‘oyasini ilgari suradi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mavjud holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizdagi suv resurslarining 90% dan ortig‘i aynan qishloq xo‘jaligida ishlatiladi. Biroq bu resurslarning katta qismi isrof bo‘ladi. Masalan, yer osti quvurlari yaroqsiz holga kelgani, ochiq kanal tizimlaridagi bug‘lanish,

infiltratsiya va noto‘g‘ri sug‘orish grafigi natijasida ba’zan suvning 40–50 foizi manzilligacha yetib bormaydi. Sug‘oriladigan yerlarning aksariyatida an’anaviy usullar — ariq, yo‘lak uslubida suv quyish amaliyoti saqlanib qolgan.

Quyidagi jadvalda turli mintaqalarda suvdan foydalanish samaradorligi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan:

1-jadval

Sug‘oriladigan dehqonchilikda suvdan foydalanish samaradorligi (mintaqalar bo‘yicha, 2024-yilda)

Mintaqa	O‘rtacha sug‘orish samaradorligi (%)	Suv isrofi sabablari (%)	Tomchilatib sug‘orish qamrovi (%)
Surxondaryo viloyati	38	Bug‘lanish (22%), oqish (16%)	6
Qashqadaryo viloyati	41	Ochiq kanallar (25%)	9
Buxoro viloyati	36	Sho‘rlanish, infiltratsiya	4
Sirdaryo viloyati	44	Eskirgan inshootlar	11
Farg‘ona vodiysi	47	Yaroqsiz drenaj, ortiqcha sug‘orish	13

Suvdan foydalanish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi dolzarb hisoblanadi. Xususan, tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish, lazerli tekislash texnologiyalari tuproq strukturasini saqlash, sho‘rlanishni kamaytirish, suv tejash va hosildorlikni oshirishda samarali ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Biroq texnologiyalarni joriy qilishning oldida moliyaviy, tashkiliy va axborot-tarqatish bilan bog‘liq to‘siqlar mavjud. Ko‘plab fermerlar yuqori boshlang‘ich xarajatlardan qo‘rqadi yoki tizimni boshqarish uchun yetarli bilimga ega emas. Shu sababli, kreditlash mexanizmlari, subsidiya siyosati, hamda qishloq xo‘jaligi mutaxassislari o‘rtasida doimiy o‘quv mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi oqibatida yerlarning suvsizlanishi, haroratning ortishi va vegetatsiya davrining uzayishi natijasida sug‘orishga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortmoqda. Bu esa mavjud resurslar ustidan bosimni kuchaytiradi. Suvni tejashda mahalliy boshqaruv organlarining roli ham muhim: suvdan foydalanish rejimlarini qat’iylashtirish, monitoring olib borish, elektron hisoblagichlar o‘rnatish va jazolash-mehnat qilish mexanizmlari mavjud tizimni optimallashtiradi.

NATIJALAR

Yana bir dolzarb masala — bu suv hisobini yuritish va nazorat qilish tizimining zaifligidir. Ayni paytda ko‘plab hududlarda suv oqimi, sarfi va sarflanuvchi maydonlar bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yo‘q yoki eskicha, qo‘lda olib borilmoqda. Bu esa nafaqat suvdan foydalanish samaradorligini aniqlashni qiyinlashtiradi, balki suvdan noto‘g‘ri foydalanish, ya’ni haddan ortiq sug‘orish, noqonuniy ulanishlar, suv sarfini yashirish holatlariga ham yo‘l ochadi. Bu kabi holatlarda sug‘orish tarmog‘ining umumiy balansini nazorat qilish imkonsiz bo‘lib qoladi. Aynan shu jihatdan suvni hisoblash tizimini raqamlashtirish, ya’ni har bir suv iste’molchisini onlayn monitoringga ulash — bugungi kunning zarurati hisoblanadi.

Ayni paytda ba’zi rivojlangan davlatlar tajribasidan ko‘rinadiki, suvni hisobga olishda sensorli o‘lchov moslamalari, GPS va IoT (Internet of Things) texnologiyalari keng qo‘llanmoqda.

Ular real vaqt rejimida qancha suv sarflangani, qayerda isrof bo‘layotgani, bosimning past yoki yuqoriligi to‘g‘risida signal beradi. Bu tizimlar yordamida suv isrofini 20–30 foizgacha kamaytirish mumkinligi ilmiy tajribalarda tasdiqlangan. O‘zbekistonda ham bunday raqamli texnologiyalar sinov tariqasida ayrim fermer xo‘jaliklarida joriy etilgan bo‘lib, dastlabki natijalar ijobiy baholanmoqda. Biroq bu tajribalarni umumlashtirish, keng miqyosda joriy qilish uchun davlat ko‘magiga tayanadigan mexanizmlar, jumladan, subsidiyalar, lizing asosidagi ta’minot tizimlari talab etiladi.

Shuningdek, yer tuzilmalarining noto‘g‘ri boshqarilishi ham suv resurslarining samarali ishlatilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘plab yerlarda tuproqning fizik xossalari – zichligi, suv o‘tkazuvchanligi, sho‘rlanish darajasi – hisobga olinmasdan sug‘orish olib boriladi. Masalan, og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarda chuqur yotgan suv oson singmaydi, natijada suv tuproq ustida to‘planib, botqoqlanishga olib keladi. Bu nafaqat suv isrofini keltirib chiqaradi, balki o‘simlik ildizlarining chirishiga, kasalliklar rivojlanishiga ham sabab bo‘ladi. Shu sababli, har bir hududda agroekologik sharoitga mos individual sug‘orish strategiyalari ishlab chiqilishi lozim.

Bundan tashqari, aholining suv madaniyati darajasi ham umumiy samaradorlikka ta’sir qiluvchi omillardandir. Ko‘pchilik dehqonlar hanuzgacha “ko‘p suv – ko‘p hosil” degan eskicha yondashuvga amal qiladilar. Aslida esa ortiqcha sug‘orish — tuproqdagi oziq moddalarning yuvilishi, sho‘rlanish va aeratsiya buzilishiga olib keladi. Shu bois, maqsadli o‘quv dasturlari orqali aholiga — ayniqsa yosh fermerlarga — zamonaviy sug‘orish texnologiyalari, suv rejimini to‘g‘ri tashkil etish, suvni tejash madaniyati singdirilishi kerak. Bunda qishloq xo‘jaligi kollejlarining, agrar universitetlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Sug‘oriladigan dehqonchilikda suv resurslaridan samarali foydalanish bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi, shuningdek, global miqyosdagi qishloq xo‘jaligi uchun dolzarb va strategik masala sifatida ko‘rilmoqda. Bu masalaning yechimi bir yoqlama texnik, iqtisodiy yoki ekologik chora-tadbirlar bilan emas, balki kompleks va tizimli yondashuv orqali amalga oshirilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy muammolar quyidagilardan iborat: eskirgan sug‘orish infratuzilmasi, yer va suv resurslarini noto‘g‘ri rejalashtirish, agrotexnik tadbirlarning sustligi, suv hisobining raqamlashtirilmaganligi, texnologik vositalardan foydalanishning past darajasi, shuningdek, suv tejash madaniyatining yetarlicha shakllanmagani. Ushbu holatlar natijasida hosildorlikning pasayishi, yerlarning sho‘rlanishi, tuproqning zichlashuvi va ekologik muvozanatning buzilishi yuzaga kelmoqda.

Amaliy natijalarga erishish uchun, eng avvalo, suvdan foydalanish mexanizmlarini raqamlashtirish, ya’ni har bir sug‘orish ob’ekti bo‘yicha real vaqt rejimidagi monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu orqali nafaqat suv isrofini kamaytirish, balki adolatli taqsimot va korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga, texnologik transformatsiyani tezlashtirish — ya’ni tomchilatib sug‘orish, lazerli tekislash, agrodrone va IoT qurilmalarini joriy etish — nafaqat suvni tejaydi, balki hosildorlikni 15–20% ga oshiradi. Davlat tomonidan subsidiya, imtiyozli kreditlar va texnik ko‘mak vositalari orqali fermerlarni bunday innovatsiyalarga yo‘naltirish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanishni tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–180-sonli qarori.
2. G‘ulomov B., To‘xtayev A. Suvdan samarali foydalanish asoslari. – Toshkent: O‘quvchi, 2020. – 148 b.
3. FAO. Water-Saving Technologies in Irrigated Agriculture. – Rome: FAO Publications, 2022. – 112 b.
4. Meliev A. Sug‘orish tizimlarida samaradorlikni oshirish usullari // “Agrosanoat” jurnali. – 2021. – №4. – B. 19–25.
5. IWMI. Suv resurslarini boshqarish va iqlimga moslashuv strategiyalari. – Kolombo: IWMI Report, 2021. – 97 b.
6. Nurmatova D. Qishloq xo‘jaligida innovatsion sug‘orish texnologiyalari // “Yosh olim” ilmiy to‘plami. – 2022. – №2. – B. 33–39.
7. Abdullayev M. Sho‘rlanish va uning hosildorlikka ta’siri // “O‘zbekiston agronomi” jurnali. – 2020. – №6. – B. 12–17.
8. Dostonbek Bahodir O‘G‘I Eshpulatov (2022). O‘ZBEKISTON AGROSANOAT MAJMUASIDA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISH HOLATINI BAHOLASH. Academic research in educational sciences, TSAU (Conference), 16-32.
9. Umurzak, C., Marjona, E., Jonibek, I., & Azamat, A. (2023). Moliyaviy hisobotni aks ettirishda tovar moddiy zaxiralar hisobi dolzarbligi.". Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10), 64-66.
10. Chorshanbiev, U., & Guzalxon, O. (2023). INNOVATION DEVELOPMENT STRATEGIES IN ENSURING THE COMPETITIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Modern Science and Research, 2(12), 1274-1277.

САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА KPI ТИЗИМИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ХОДИМЛАРНИ РАҒБАТЛАНТИРИШ

Турсунов О.С.
Тошкент давлат транспот университети катта ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.15390861

Аннотация. *Ушбу мақолада турли муаллифларнинг корхона самарадорлигининг асосий кўрсаткичлари муаммосига оид замонавий ёндашувлари муҳокама қилинади. Шунингдек, мен корхонада KPI тизимини ишлаб чиқиш ва жорий этиш жараёнини тақдим этдим, бундан ташқари, ушбу тизимни амалга ошириш жараёнида юзага келиши мумкин бўлган муаммолар аниқланди. Мисоллар бизнес жараёнларини оптималлаштириш ёрдамида KPI тизимини бошқаришни кўрсатади.*

Асосий самарадорлик кўрсаткичлари тизимини жорий этишда корхоналарда вжудга келадиган муаммоларни ҳал қилиш усуллари келтирилган.

Калит сўзлар: *KPI, KPI тизими, KPIларнинг субъективлиги, KPI асосидаги мотиватсия, KPI тизимининг афзаллиги.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные подходы различных авторов к проблеме основных показателей эффективности деятельности предприятия. Также я представил процесс разработки и внедрения системы KPI на предприятии, кроме того, были выявлены проблемы, которые могут возникнуть в процессе внедрения этой системы. На примерах показано управление системой KPI с использованием оптимизации бизнес-процессов.*

При внедрении базовой системы показателей эффективности представлены методы решения проблем, возникающих на предприятиях.

Ключевые слова: *KPI, система KPI, субъективность KPI, мотивация на основе KPI, преимущество системы KPI.*

Abstract. *This article discusses the modern approaches of various authors to the problem of the main indicators of the effectiveness of the enterprise. I also presented the process of development and implementation of the KPI system at the enterprise, in addition, problems were identified that may arise in the process of implementing this system. Examples show the management of a KPI system using business process optimization.*

In the implementation of the basic system of indicators of efficiency, methods for solving problems arising in enterprises are presented.

Key words: *KPI, KPI system, subjectivity of KPI, KPI-based motivation, advantage of KPI system.*

Корхонанинг бизнес жараёнларини бошқаришнинг замонавий ёндашувларини ўрганиб, сиз KPI (Кей Перформансе Индисаторс) қисқартмасига тобора кўпроқ дуч келишингиз мумкин.

Корхонанинг муайян мақсадларига эришиш даражасини баҳолайдиган кўрсаткичлар тизими сифатида KPIлар корхонага кўплаб бизнес жараёнларидан қайси бири умумий

мақсадларга эришишга тўсқинлик қилаётганини тушунишга ёрдам бериш учун мўлжалланган ва шунга мос равишда такомиллаштириш ва оптималлаштиришни талаб қилади.

KPIни корхоналарда аниқлаш, ишлаб чиқиш ва қўллаш бўйича турли муаллифларнинг кўплаб асарлари мавжуд. Масалан, Жозеф Райнуснинг «Improving Business Process Performance» асарида [2] муаллиф

KPIни мақсадлардан четга чиқиш даражасини ўлчайдиган ва тегишли бизнес жараёнларини оптималлаштириш орқали керакли курсга қайтишга имкон берадиган тизим сифатида кўриб чиқади. Девид Парментер ўзининг «Developing, Implementing and Using Winning KPIs» [3] асарида KPIни жорий этишнинг асосий принципларини тавсифлайди ва турли мисолларда ушбу тизимнинг зарурлигини кўрсатади. Бундан ташқари, худди шу Парментернинг фикрига кўра, KPIлар нотижорат ташкилотларда ҳам қўлланилиши мумкин, буни унинг «ҳукумат ва фойда келтирмайдиган агентликлар учун асосий кўрсаткичлар» [4] иши тасдиқлайди. Парментер шуни кўрсатадики, KPI тизими мослашувчан ва нотижорат ташкилотларда ҳам мақсадларга эришиш учун ҳисоблагич бўлиши мумкин. Ўзбекистонлик муаллифлар орасида ушбу мавзу бўйича кўплаб ишлар ҳам мавжуд, масалан, Ветлужский «мукофот тизими» асарида. Мақсадлар ва KPIларни қандай ишлаб чиқиш керак» [5], маълум кўрсаткичларни корхона менежерлари билан ўз вазифаларига мос равишда боғлайди ва мақсадларга муваффақиятли эришган менежерлар учун пул бонуслари мукофотларини беради. Ўз-ўзидан, кўплаб муаллифлар KPI тизимини мукофот тизими деб билишади. Албатта, у шундай ҳаракат қилиши мумкин, аммо KPI тушунчаси анча кенгроқ ва мотиватсион мулоҳазалардан ташқари, у корхонанинг бизнес жараёнларини оптималлаштириш муаммосини ҳал қилишга ёрдам берадиган бошқа элементларни ҳам ўз ичига олади.

Муаммонинг долзарблиги замонавий корхоналар каналлар билан ўзаро боғлиқ бўлган кўплаб бизнес-жараёнларни ўз ичига олган тизимлар эканлиги билан боғлиқ бўлиб, бу ерда жараёнлардан бирининг бузилиши у билан ўзаро боғлиқ бўлган бошқа жараёнларнинг бузилишига олиб келиши мумкин, бу эса охир-оқибат корхона мақсадларига эришишга халақит бериши мумкин. KPIлар корхона томонидан белгиланган курсдан четга чиқишларни кўрсатади ва этарли даражада оптималлаштирилмаган бизнес жараёнларини кузатишга ёрдам беради ва корхона тўғри ёъналишга қайтиш ва ўз мақсадларига эришиш учун ушбу жараёнларни созлаш чораларини кўриши мумкин.

Ушбу мақоланинг мақсади корхонада KPIни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш қандай амалга оширилишини кўрсатиш ва ушбу тизимнинг ўзаро боғлиқлигини ва бизнес жараёнларини оптималлаштиришни баҳолашдир.

Мақоланинг вазифалари қуйидагилардан иборат:

- Корхоналарда KPI тизимини жорий этиш муҳимлигини кўрсатиш;
- Корхоналарда KPI тизимини ишлаб чиқиш ва жорий этиш қандай амалга оширилаётганлигини аниқ кўрсатиб бериш;
- Ушбу тизимни амалга ошириш билан боғлиқ асосий муаммоларни санаб ўтиш;
- Бизнес жараёнларини оптималлаштириш ёрдамида KPI бошқарувини тасвирлаш;

Аввало, ушбу тизимни корхонага жорий этиш муҳимлигини таъкидлаймиз.

KPI тизимининг афзаллиги шундаки, у корхонага нафақат мақсадли кўрсаткичлардан оғиш даражасини, балки ушбу оғиш содир бўлган корхона бўлимини ҳам

ўз ичига олган қимматли ахборот оқимини беради. Бу муаммонинг манбасини тезда топишга ва муаммонинг ўзаро боғлиқ бизнес жараёнларини қамраб олишидан олдин ушбу KPIга мос келадиган бизнес жараёнини тузатишга имкон беради. Бундан ташқари, бу хавф йирик корхоналар учун ҳам, кичик корхоналар учун ҳам мавжуд.

Кўп сонли KPI билан уларни бошқариш жараёни жуда мураккаблашади. Бундан ташқари, бажаришда муаммолар бўлиши мумкин. Агар битта ходимга жуда кўп кўрсаткичлар тайинланган бўлса, унда у уларнинг ҳеч бирига вақт тополмаслиги мумкин. Кўпгина муаллифлар ҳар бир ходим учун оптимал KPI сони 5 га тенг деб ҳисоблашади.

Баъзи KPIларнинг субъективлиги.

Юқорида айтиб ўтилганидек, кўрсаткичларга эришиш мумкин бўлиши керак, агар миқдорий эмас, балки сифат кўрсаткичларини ҳисобга олсак, унда ходим ундан нимани хоҳлашини тушуниши қийин бўлади, масалан, «маҳсулот сифати» кўрсаткичи, очилмаган ҳолда, икки томонлама маънога эга бўлиши мумкин.

Қўшимча кўрсаткичлар (маҳсулот параметрлари) берилмаган, яъни ўз маҳсулотларини субъектив фикрдан бошқа ҳеч қандай тарзда баҳолаш имконсиз бўлиб қолган ходим ноқулай вазиятга тушиб қолиши мумкин, чунки унинг сифати ҳақидаги ғояси ўз раҳбарларининг тақдимотидан фарқ қилади, гарчи бу ходим, масалан, маълум бир қўшимча параметрларга эга бўлса ҳам, раҳбарларга керакли натижага эришиш. Аслида, ходим моҳир бўлиб, бошлиқлар назарида қобилиятсиз ишчи бўлиб чиқиши мумкин.

2004 йилда, Garvard Business Review мингдан ортиқ корхоналарнинг раҳбарлари ва ходимларини ўз ичига олган самарали ходимларни аниқлаш ва оптимал мотиватсия усулларини излаш мақсадида ўтказилган тадқиқот натижаларини эълон қилди.

Маълум бўлишича, ўртача корхонада ходимларнинг 5 фоизи ҳар доим яхши ишлайди, ходимларнинг бир хил сони (5-7%) ҳар доим ёмон ишлайди ва қолган 88% самарали ишлаши учун ҳар доим мақсад ва вазифаларни уларнинг бажарилишини мажбурий назорат қилиш билан тўғри белгилаш талаб этилади.

Ходимларнинг натижаларга эришиш ва вазифаларни ҳал қилишга бўлган қизиқишини фақат натижаларга эришилганда тўланадиган пул мукофотлари билан боғлаш орқали кучайтириш мумкин. Ҳозирги вақтда натижаларни аниқлаш ва пул мукофотини аниқлаш механизмларини яратиш методологияси KPI асосида мотиватсия тизими деб аталади (инглизча қисқартмаси). Key Performance Indicator) - асосий тараққиёт сатри.

Корхонанинг барча ходимлари фақат корхонанинг мақсадларига эришилгандан кейингина ходимнинг мақсадларига эришиш мумкинлигини тушунишлари жуда муҳимдир. Корхонанинг фойдаси қўшимча ҳақ тўлаш манбаи ҳисобланади. У қисман ходимларни қўшимча мукофотлаш учун ишлатилиши мумкин ва агар фойда олинмаса, ҳеч кимнинг манфаатларига эришилмайди.

Шуни ҳам таъкидлаш керакки, бошқарув технологияларининг ривожланиши билан юқоридаги тушунчалар олимлар ва мутахассислар томонидан такомиллаштирилди ва такомиллаштирилди ва ҳозирги кунга қадар энг яхши ва амалда қўлланиладиган ғояларни ўз ичига олган замонавий KPI тизимига айланди.

Ўзбекистонда KPIни қўллайдиган барча усуллардан энг машҳур (реклама қилинган) Балансед Ссоресард (BSC) тизими бўлиб, у Роберт Каплан, Девид Нортон, уларнинг издошлари китобларида, шунингдек кўплаб мақолаларда тасвирланган.

Ушбу тизимни айнан шу муаллифлар ихтиро қилган деб даъво қилиш қийин, чунки у Piter Druckerнинг мақсадли бошқарув методологиясига ва Тони Бузан ихтиро қилган «ақл хариталари» ёрдамида мақсадлар ўртасидаги алоқаларни тавсифлаш усулига асосланган. Лекин муваффақиятли реклама кампанияси ва реклама стратегияси туфайли ушбу услуб таниқли бўлди.

KPI асосида пул мукофотининг ўзгарувчан қисмини шакллантириш тизими ходимни юқори индивидуал натижаларга эришишга, шунингдек унинг жамоавий натижалар ва ютуқларга, корхонанинг стратегик мақсадларини амалга оширишга қўшган ҳиссасини оширишга ундайди. Шу билан бирга, KPI асосида иш ҳақининг ўзгарувчан қисмини шакллантириш тизимидаги KPI кўрсаткичлари ходимлар учун жуда содда ва тушунарли бўлиши керак ва компенсатсия пакетининг ўзгарувчан қисмининг ўлчамлари иқтисодий жиҳатдан оқилона бўлиши керак.

Шундай қилиб, меҳнат мотиватсияси ходимнинг меҳнат потентсиалини очиш даражасига, яъни ишлаб чиқариш фаолиятига таъсир қилувчи хусусиятларнинг бутун тўпламига таъсир қилувчи иш самарадорлигининг энг муҳим омилига айланади.

Шунинг учун унинг иш самарадорлигини ошириш меҳнат унумдорлигини ошириш ва юқори натижаларга эришиш учун улкан имкониятларни очиб беради. Одамлар учун мавжуд бўлган барча ресурслардан инсон ресурслари энг самарали, мослашувчан ва ихтирочи ҳисобланади.

Жаҳон амалиёти KPI тизимининг жорий этилиши корхоналарнинг даромадларини 10% дан 30% гача оширишини ишончли исботлайди, чунки у ходимларнинг ишини натижага ёъналтиради, ходимларнинг мотиватсияси ва садоқатини оширади. KPI орқали бошқарув ва мотиватсия тизимини жорий этиш корпоратив тренинг орқали сотиб олиниши мумкин бўлган корхона раҳбарларидан махсус билимларни талаб қилади.

Даромаднинг маълум бир қисми ишнинг индивидуал ва умумий самарадорлигига боғлиқ бўлган натижа учун иш ҳақи тизими глобал инқироз даврида ишдан бўшатиш ёки иш ҳақини қисқартиришдан қочиш ва меҳнат унумдорлигини ошириш имкониятини беради.

KPI асосидаги мотиватсия ходимларнинг деярли барча эҳтиёжларини ҳисобга олади ва моддий мотиватсиянинг энг илғор тизимларидан биридир.

Ходимларнинг самарадорлигини баҳолаш асосида корхона раҳбарияти мукофотлар соҳасида рағбатлантирувчи стратегияларни ишлаб чиқиши ва амалга ошириши ва энг муҳими, улар эгаллаган лавозимларнинг талабларига жавоб бермайдиган ходимларни аниқлаши мумкин. Буларнинг барчаси нафақат бошқарув самарадорлигини оширади, балки ходимларга ўзларининг аниқ вазифалари ва корхонанинг стратегик мақсадлари ўртасидаги боғлиқликни яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

Ўзбекистонда ўтказилган тадқиқотларга кўра, KPI асосида мукофот миқдори (компенсатсия пакетининг ўзгарувчан қисми) компенсатсия пакетининг доимий қисмининг камида 25-30 фоизини ташкил қилиши керак, акс ҳолда KPI натижаларига кўра мукофот рағбатлантирувчи кучини йўқотади.

Ойлик мукофот тўлови сотувчи бўлинмалар, маркетинг ва логистика хизматлари ходимларига, шунингдек иши бевосита боғлиқ бўлган ходимларга тавсия этилади корхонанинг натижаси учун. Бундай ходимлар учун тўловларнинг бошқа частотаси ўз

вақтида ва ёқимсиз бўлади. Фоиз нуқтаи назаридан, уларнинг иш ҳақи 30% иш ҳақи ва 70% ўзгарувчан қисм – мукофотдан иборат бўлиши керак.

Йуқоридагилардан келиб чиқадики, корхона бўлинмалари қуйидаги мезонларга мувофиқ белгиланади ва таснифланади:

- жараёнга эмас, балки натижага юналтирилган;
- асосий ёки таъминловчи бизнес жараёнларига мурожаат қилиш.

Ушбу таснифдан фойдаланиш иш ҳақининг ўзгарувчан ва доимий қисмларининг нисбатларини аниқлашга имкон беради. Хулоса қилиш мумкинки, асосий бўлинмаларда жараёнга юналтирилганлик қанчалик аниқ бўлса, ходимнинг умумий даромадида ўзгарувчан қисмнинг улуши шунчалик катта бўлиши керак.

Хулоса:

Хулоса сифатида шуни айтиш керакки, KPI тизимини жорий этишнинг муайян муаммоларига қарамай, унинг афзаллиги шундаки, у нафақат корхонанинг муаммоларини кўрсатади, балки ушбу муаммоларнинг марказини очиб беради, шу билан бирга KPIга эришиш учун тўғри рағбатлантириш тизимига эга бўлган рағбатлантирувчи восита ҳисобланади. Шунингдек, KPI бизнес-жараёнларнинг элементлари бўлиб, корхона томонидан белгиланган мақсадларга эришиш учун қайси бизнес-жараёнларни оптималлаштириш кераклигини аниқлайди. Худди шундай, KPI тизимини бошқариш бизнес жараёнларини оптималлаштириш орқали амалга оширилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИОТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Каплан Роберт, Нортон Дэвид. “Тҳе Балансед Ссоресард. Транслатинг стратегй инто астион”, Ҳарвард Бусинесс счоол пресс, Бостон, США, 1996. 294 с.
2. Райнус Джозеф. “Импровинг Бусинесс Просесс Перформансе”/ СРС Пресс/ Тайлор & Франсис Гроуп, Милтон Парк. Абингтон. Великобритания, 2011. 345 с.
3. Парментер Дэвид. “Девелопинг, Имплементинг анд Усинг Winнинг KPIс”. Жоҳн Wилей & Сонс Инс, Канада, 2007. 236 с.
4. Парментер Дэвид. “Кей Перформансе Индисаторс фор Говернмент анд Нон Профит Агенсиес”. Жоҳн Wилей & Сонс Инс. Канада, 2012. 224 с.
5. Ветлужских Елена. “Система вознаграждения. Как разработать цели и KPI”. Альпина Паблишер, Москва, 2014. 28 с

NAMANGAN VILOYATI KO‘CHMAS MULK BOZORINI HOLATI VA RIVOJLANISHI

Karimjanova Ra’noxon
Namangan davlat texnika universiteti
Marketing kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15469538

Annotatsiya. *Maqolada ko‘chmas mulk bozori va uni iqtisodiyotda ahamiyati yoritilgan. Mamlakatimizda 2030-yilgacha qurilish sanoatini rivojlantirish istiqbollari o‘rganilgan. Namangan viloyatida 2020-2023 yillarda amalga oshirilgan qurilish ishlari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *urbanizatsiya, millionlik shaharlar, ko‘chmas mulk, rieltorlik.*

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishida qurilish sanoati alohida o‘rin tutadi. Bu soha infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, shahar va qishloq joylarini obodonlashtirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish orqali umumiy iqtisodiy o‘sishga kuchli turtki beradi. O‘zbekiston misolida olib qaralganda, so‘nggi yillarda qurilish sanoatining jadal rivojlanayotgani kuzatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158 sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan:

Urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish choralarini ko‘rish, Samarqand va Namangan shaharlarini “millionlik shaharlar”ga aylantirish, 300 mingdan ko‘p bo‘lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish, barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish.

Hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo‘shimcha 200 mingta oilaga mo‘ljallangan uylarni barpo etish, respublikada kamida 140 ming oilaga mo‘ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish.

Xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan massivlar va eskirgan uy-joylarni yangilash maqsadida keng jamoatchilik fikri asosida renovatsiya dasturlarini ishlab chiqish, aholi zich bo‘lgan hududlarda “bo‘yiga o‘stirish” tamoyili asosida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish.

Rivojlangan davlatlarning bino-inshootlar bo‘yicha qurilish xavfsizligi me’yorlari asosida yangi standartlarni joriy qilish.

Ko‘p kvartirali uylar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurishni tartibga soluvchi qonuniy asoslarni shakllantirish.

Jahondagi globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va sotish salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularning bozorlari zamonaviy marketing konsepsiyalari asosida rivojlanmoqda. Hozirgi kunda, jahonda eng muhim o‘ntalikka kiritilgan ijtimoiy muammolardan biri - bu aholining uy joy bilan ta’minlanishi hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, «aholining har bir nafar kishi hisobiga uy-joy bilan ta’minlanishi ko‘rsatkichi Germaniyada - 39 kv.m, Rossiyada 25.8 kv.m, Polshada 25 kv.m, Turkiyada 17 kv.m va AQShda - 70 kv.m ga

to‘g‘ri kelmoqda»[12]. Qurilish sanoatining tarmog‘ining barqaror rivojlanishi asosan qurilish materiallariga bo‘lgan talabning miqdor va sifat jihatidan qondirilishiga bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda qurilish materiallari bozorini marketing konsepsiyalari asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz hududlarida amalga oshirilayotgan qurilish ishlari bevosita ko‘chmas mulk bozori rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Qurilish sanoatining rivojlanishi bilan birga ko‘chmas mulk bozori ham rivojlanib bormoqda. Respublikamizda shakllantirilib kelayotgan ko‘chmas mulk bozorida hamda ko‘chmas mulk obyektlari ishtirok etadigan barcha iqtisodiy jarayonlarda obyektlarni baholash va rieltorlik bilan bog‘liq faoliyatni tashkil etish va uni respublikamizda iqtisodiyotning turli sohalari xususiyatidan kelib chiqqan holda takomillashtirish hozirgi kunning o‘ta dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Bundan tashqari yil sayin ko‘chmas mulk bozorining hajmi yildan-yilga kengayib bormoqda, ya’ni ko‘chmas mulkka bo‘lgan talab ortib bormoqda. Natijada, ko‘chmas mulk bozorini o‘rganish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida ko‘chmas mulk bozori iqtisodiyotning muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda yashash sharoitlarini yaxshilashga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani ko‘chmas mulk bozoriga bo‘lgan talabning izchil oshishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, shaharlardagi qurilishlarning ko‘payishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi ushbu bozorning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ko‘chmas mulk bu – yerdan va unda joylashgan bino inshootlardan tashkil topgan mulk. Ko‘chmas mulk o‘z ichiga yer ustida yoki yer ostida joylashgan va yerga o‘rnatilgan moddiy mulklarni oladi. Ko‘chmas mulk bozori – bu sotuvchi va xaridorlar o‘rtasida ko‘chmas mulkning konkret narxni aniqlash uchun birlashadigan va natijada ko‘chmas mulk ayriboshlanishi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tashkiliy tadbirlar tizimi. Ko‘chmas mulk bozori – bu barcha ko‘chmas mulk sotuvchilari va xaridorlarining ayni vaqtda mavjud bo‘lgan barcha talab va takliflari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik yuzaga keladigan va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq barcha joriy operatsiyalar yig‘indisi amalga oshiriladigan iqtisodiy-huquqiy hudud. Ko‘chmas mulk bozori o‘zida ko‘chmas mulk obyektlariga kapital kiritish sohasi va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalarda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. Bu munosabatlar investorlar o‘rtasida ko‘chmas mulkni oldi-sotdi jarayonida, ipoteka, ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish jarayonlarida yuzaga keladi.

Milliy ko‘chmas mulk bozori - bir-biridan sinxron rivojlanishi, narxlar va xavf-xatarlar darajasi, ko‘chmas mulkka investitsiyalarning samaradorligi va ayniqsa qonunchilik holati, siyosiy va ijtimoiy barkarorligi bilan farqlanib turuvchi mintaqaviy va maxalliy bozorlarning jamuljamligidir. Ko‘chmas mulk bozorining o‘ziga xosligi shundan iboratki, ko‘chmas mulkning o‘rtacha xaridori, odatda, ko‘chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki ularga investitsiya kiritish tajribasiga, shuningdek bitimlarning haqiqiy narxlari haqidagi ma'lumotga ega bo‘lmaydi.

Ko‘chmas mulk bozorini ajralib turadigan xususiyatlar quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ baho shakllanishini individualligi;
- ✓ transaksion chiqimlar baland darajasi;

[12] https://gidnenuzen.ru/obespechennost-zhilem-po-stranam-mira-2020/

- ✓ birinchi va ikkinchi darajali bozorlar o‘zaro faoliyati muhim roli;
- ✓ baho, foydalilik va tavakkalchilikni regional iqtisodiyot holatiga bog‘liqligi;
- ✓ tavakkalchilikning rang-barangligi;
- ✓ tovarni bozordagi past likvidligi;
- ✓ bozorning o‘zini o‘zi boshqarishni baho mexanizmlarini zaifligi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Namangan viloyatida 2020-2023 yillarda amalga oshirilgan qurilish ishlari tahlili

mlrd.so‘m

№	Hududlar	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
1	O‘zbekiston Res.	88130,3	107493	130791	150792,6
2	Namangan vil.	4678,2	5556,7	6653,2	7342,2

O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmi 2020 yilda 88,1 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 150,8 trln so‘mga yetgan. Tahlil qilinayotgan davr ichida umumiy o‘sish 71% ni tashkil etgan. Har yili o‘rtacha 15–20% atrofida o‘sish kuzatilgan, bu esa qurilish sanoatining izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Namangan viloyati bo‘yicha 2020 yilda 4,7 trln so‘m bo‘lgan qurilish hajmi 2023 yilda 7,3 trln so‘mga yetgan, umumiy o‘sish 56.9% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich respublika o‘rtacha o‘sish sur’atidan biroz past bo‘lsa-da, barqaror ijobiy tendensiyani aks ettiradi. Qurilish ishlari hajmining yil sayin oshib borayotgani quyidagi omillar bilan bog‘liq: hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari; xususiy sektorning faol jalb qilinishi; yangi uy-joylar, savdo va sanoat obyektlariga bo‘lgan talabning ortishi. Namangan viloyati misolida viloyatlarda ham qurilish faoliyati kengayib borayotgani ko‘rinmoqda, bu esa hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida qurilish sanoati so‘nggi yillarda iqtisodiyotning eng faol va tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. 2020–2023 yillar oralig‘ida respublikada qurilish ishlarining hajmi 88,1 trln so‘mdan 150,8 trln so‘mga yetdi, bu esa 71% dan ortiq o‘sishni anglatadi. Namangan viloyatida ham ijobiy dinamika kuzatildi — qurilish hajmi 4,7 trln so‘mdan 7,3 trln so‘mga yetgan, ya’ni 57% o‘sish qayd etilgan. Shunga qaramay, Namangan viloyatining respublika qurilish bozoridagi ulushi 2020 yildagi 5,31% dan 2023 yilda 4,87% ga kamaygan. Bu holat viloyatda qurilish salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqarilmayotganini va boshqa hududlarda (ayniqsa, poytaxt va yirik viloyatlarda) qurilish faolligi ancha yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur tendensiyani o‘zgartirish uchun Namangan viloyatida qurilish sohasiga investitsiyalarni jalb etish, infratuzilma loyihalarini kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu yo‘sinda, viloyat nafaqat qurilish hajmini oshiradi, balki respublika bozoridagi ulushini ham tiklab, o‘z iqtisodiy salohiyatini kuchaytiradi.

Xulosa va tavsiyalar

Ko‘chmas mulk bozorini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish ijobiy natijalar olib keladi deb hisoblaymiz:

1. Huquqiy bazani soddalashtirish – mulk huquqini rasmiylashtirishda shaffoflik va tezlikni ta’minlash.

2. Raqamlashtirish – onlayn savdo platformalari va sun’iy intellektdan foydalanish.

3. Infratuzilmani yaxshilash – yangi uylar atrofida maktab, bog‘cha, transport imkoniyatlarini rivojlantirish.

4. Ipoteka tizimini kengaytirish – qulay va uzoq muddatli kreditlar orqali xarid imkoniyatlarini oshirish.

5. Marketingni kuchaytirish – ochiq axborot va mijozga yo‘naltirilgan reklama strategiyalari.

6. Yashil qurilish – ekologik va energiya tejamkor binolar qurilishini rag‘batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158 sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni
2. https://gidnenuzen.ru/obespechennost-zhilem-po-stranam-mira-2020/
3. O‘zbekiston Respublikasi “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonun 31.10.1990y.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Baholash faoliyati to‘g‘risida” gi Qonun. 19.08.1999y.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida” gi Qonun. 22.12.2010y.
6. Горемыкин В.А., Бутулов Э.Р. Экономика недвижимости. М.: Филинь, 1999.
7. Грибовский С.В. и др. Оценка стоимости недвижимости. М.: Интererклама, 2003. - 704 с.
8. Lex.uz

CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA REKLAMA FAOLIYATINI YO‘LGA QO‘YISHNING SOHADA TUTGAN O‘RNI

Karimova Nafisabonu Djamshidovna
TDIU Marketing kafedrasi tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15389118

Annotatsiya. *Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, reklama korxonalar uchun mahsulotni targ‘ib qilish vositasigina emas, balki mijoz bilan uzviy aloqani yo‘lga qo‘yish instrumenti sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Buni inobatga olgan holda, ushbu maqolada chakana savdo korxonalarida reklama faoliyatini tashkil etish va uning savdo hajmi, iste’molchilarning xulq-atvori hamda brend tanlovi shakllanishiga ta’siri o‘rganiladi, shuningdek, reklama strategiyalarining samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *chakana savdo, reklama, marketing strategiyasi, iste’molchi xulq-atvori, brend, savdo hajmi, raqobat*

Bugungi kunda chakana savdo bozori o‘zgaruvchan iste’molchi talabiga va kuchli raqobat muhitiga ega bo‘lib, bu holat savdo korxonalarini yangi marketing yondashuvlarini izlashga undamoqda. Ayniqsa, reklama faoliyati – mahsulot yoki xizmatni ommaga yetkazish, iste’molchi ongida ijobiy tasavvur hosil qilish va savdo hajmini oshirishda asosiy vositalardan biridir.

Chakana savdo korxonalarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan ular reklama orqali auditoriyasini to‘g‘ri aniqlay olishi, bozordagi mavqeini mustahkamlashi va brendga sodiq xaridorlar bazasini shakllantira olishiga bog‘liq. Ayniqsa, O‘zbekiston bozorida reklama vositalarining tahlilini olib borish, mahalliy va xorijiy tajribani solishtirish, eng mos keladigan uslublarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Chakana savdo – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchiga mahsulot yetkazib beriladigan iqtisodiy faoliyat sohasi bo‘lib, iste’molchilarning kundalik ehtiyojlarini qondirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda iste’molchilarning tanlov imkoniyatlari kengaygani sayin, chakana savdo korxonalari uchun o‘z mahsulotini ajratib ko‘rsatish, xaridorni jalb qilish va uni doimiy mijozga aylantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Ana shu jarayonda reklama faoliyati asosiy kommunikatsion vosita sifatida maydonga chiqadi.

Reklama yordamida korxona mahsulotining afzalliklari, narxlardagi chegirmalar, servis sifati va boshqa jihatlar iste’molchiga tezkor yetkaziladi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosidagi reklama – ya’ni, internet-bannerlar, ijtimoiy tarmoq orqali tarqatilayotgan reklama roliklari va kontekstli reklama usullari – xarid qilishga turtki beruvchi asosiy vositalardan biridir.

O‘zbekiston chakana savdo sektorida oxirgi yillarda raqobatning kuchayishi reklama strategiyalarining ahamiyatini yanada oshirdi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil yakuniga qadar umumiy chakana savdo aylanmasi 396,6 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 8,9% ko‘pdir. Bu o‘sishda reklama kampaniyalarining ham muhim hissasi borligi shubhasiz.

Katta shaharlardagi yirik savdo tarmoqlari – masalan, “Korzinka”, “Makro”, “Havas”, “Baraka Market” va boshqalarda reklama faoliyati maxsus PR bo‘limlari orqali yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda kichik biznes sub’yektlari orasida esa reklama samaradorligi kamroq bo‘lib, bu marketing bilimlarining yetishmasligi yoki yetarli sarmoya ajratilmaganligi bilan bog‘liq.

Reklama strategiyasi ishlab chiqishda chakana savdo korxonalari bir necha bosqichdan o‘tishi lozim:

1. **Maqsadli auditoriyani aniqlash** – xaridor kim, u qayerda yashaydi, nima bilan qiziqadi?
2. **Reklama kanallarini tanlash** – televideniye, radio, tashqi reklama, internet, bosma OAV.
3. **Byudjet belgilash** – har bir kanal uchun reklama xarajatlari nisbati aniqlanadi.
4. **Natijalarni monitoring qilish** – reklama kampaniyasidan keyin savdo hajmiga ta’siri tahlil qilinadi.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda reklama bergan savdo korxonalarining ko‘pchiligi aniq auditoriyaga murojaat qilgani sababli mijozlar sonini 15–20 foizga oshirgan (*Marketing Association of Uzbekistan, 2023-yil hisobotidan*).

Reklama strategiyasi ishlab chiqishda chakana savdo korxonalari qaysi bosqichlardan o‘tishi kerakligini bilsa-da, ayrim muammolar ko‘zga tashlanadi. Masalan, O‘zbekistondagi kichik chakana savdo sub’yektlari orasida quyidagi muammolar mavjud:

- marketing bo‘yicha malakali mutaxassislarning yetishmasligi;
- reklama samaradorligini o‘lchash vositalarining yo‘qligi;
- reklama byudjetining kamligi;
- raqamli platformalardan foydalanish madaniyatining sustligi.

Shu sababli savdo korxonalari uchun reklama nafaqat estetik bezak yoki tashqi ko‘rinish, balki iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydigan strategik vosita sifatida qaralishi lozim. Bu borada quyidagicha tavsiyalarni berish mumkin:

1. Chakana savdo subyektlari uchun qisqa muddatli “marketing va reklama” bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish;
2. Har bir reklama kampaniyasi uchun KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) belgilash va monitoring qilish;
3. Mahalliy va xorijiy reklama agentliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
4. Raqamli marketing (SMM, SEO, kontekstli reklama) bo‘yicha grantlar ajratish orqali kichik korxonalarni qo‘llab-quvvatlash.

Chakana savdo korxonalarida reklama faoliyatini samarali tashkil etish bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Reklama nafaqat mahsulot yoki xizmat haqida ma'lumot tarqatish, balki xaridor ongida brendga nisbatan ishonch uyg‘otish, savdo hajmini oshirish va mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida reklama bozorining izchil rivojlanayotgani kuzatilmoqda, biroq kichik va o‘rta savdo sub’yektlarida bu sohaga e’tibor hali ham yetarli emas. Shu boisdan quyidagi xulosalarga kelinadi:

- Reklama faoliyatining strategik rejalashtirilishi va natijaviyligini baholash tizimi ishlab chiqilishi lozim;
- Savdo korxonalarida raqamli marketing imkoniyatlaridan samarali foydalanish madaniyatini oshirish kerak;

- Davlat tomonidan kichik tadbirkorlar uchun reklama texnologiyalari va zamonaviy vositalarni o‘rganishga oid grantlar, subsidiyalar ajratilishi maqsadga muvofiq;
- Marketing mutaxassislarini tayyorlash va ularni amaliyotga yo‘naltirish tizimi kuchaytirilishi zarur.

Umuman olganda, chakana savdo sohasida reklama faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi korxona rentabelligini oshirish bilan birga, iste’molchilar madaniyatining o‘sishiga ham xizmat qiladi. Fikr-mulohazalarga umumiy xulosani tizimli jadval shaklida taqdim etish maqsadga muvofiq ko‘rildi:

№	Xulosa mazmuni	Izoh (asoslovchi mulohaza)
1	Reklama – chakana savdo samaradorligini oshiradi	Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan reklama savdo hajmini ko‘paytiradi, brendga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.
2	Raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish zarur	Ijtimoiy tarmoqlar, kontekstli reklama va SEO orqali maqsadli auditoriyaga tezkor yetib borish mumkin.
3	Kichik biznes uchun reklama strategiyasiga davlat ko‘magi kerak	Subsidiyalar, treninglar va maslahat xizmatlari orqali reklamani samarali yo‘lga qo‘yish imkoni oshadi.
4	Marketing sohasi mutaxassislarini tayyorlash dolzarb	Amaliy tajribaga ega kadrlar reklama jarayonini puxta tashkil etadi.
5	Reklama faoliyatini tahlil qilish va samaradorlikni baholash mexanizmi ishlab chiqilishi lozim	Har bir reklama kampaniyasining ROI (investitsiya rentabelligi) ko‘rsatkichi hisoblanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “2023-yil yakunlari bo‘yicha chakana savdo hajmi haqida ma’lumot”. — https://stat.uz
2. “Reklama to‘g‘risida”gi Qonun. Qabul qilingan sana: 25.12.1998-yil, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5006-sonli qarori, 2017-yil 27-aprel.
4. Kotler F. “Marketing asoslari”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. “Marketing Association of Uzbekistan” yillik hisobotlari, 2023. – https://marketing.uz
6. Азрильян А.Н. «Современная реклама и PR в торговле». – М.: Юнити-Дана, 2021.
7. Узбекистанская Ассоциация маркетинга. Аналитический обзор рекламного рынка, 2023.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ МАРКЕТИНГОМ НА ПРОИЗВОДСТВЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ

Мусаева Шоира Азимовна
Профессор Самаркандского института экономики и сервиса, Самарканд, Узбекистан
https://doi.org/10.5281/zenodo.15469510

Аннотация. *В статье рассматривается значение принципов маркетинга в современной теории менеджмента, раскрывается содержание аналитической функции, определяются основные направления и показатели маркетингового анализа, разрабатываются пути совершенствования маркетингового анализа на производственных предприятиях.*
Ключевые слова: *предприятие, конкуренция, система управления, товар, спрос, предложение, продажи, эффективность.*
Abstract. *The article examines the importance of marketing principles in modern management theory, reveals the content of the analytical function, defines the main directions and indicators of marketing analysis, and develops ways to improve marketing analysis in manufacturing enterprises.*
Keywords: *Enterprise, competition, management system, product, demand, supply, sales, efficiency.*
